

**BOLANING IJTIMOYIY VA SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISHIGA DIALOGIK VA
MONOLOGIK NUTQNING AHAMIYATI**

Bahodirova Shaxina Bobirjonovna
Jovunboyeva Mashxura Mamasoli qizi
Amonova Nigina Obid qizi

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi 2- bosqich talabalari*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turli yosh guruhlar tarbiyasida bolalarni dialogik nutqqa o'rgatish muammolari, dialogik nutq rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlarning ahamiyati, ilk yoshdagi ijtimoiy rivojlanish vaziyati va uning vazifasi haqida so'z boradi va bolalarga dialogik nutqni o'rgatish usullarini shakllantirish masalasining ilmiy nazariy ahamiyati, uni o'rganilganlik darajasi va hozirgi vaqtdagi ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar : *dialog, imitatsiya metodi, talaffuz, grammatik ko'nikma, dialogik nutq, jonlanish kompleksi, emotsional, ijobiy munosabat.*

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bola nutqning grammatik to'g'riligini o'stirishda dialogni rivojlantirish nafaqat shunchaki nutqning muayyan kompozitsion shaklini o'zlashtirish, balki bolaning ijtimoiy va shaxs jihatdan shakllanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dialogik dialog nafaqat aloqa (intellektual mazmun) va o'z manfaatlariga yo'nalishni, balki sherikning nuqtayi nazarini, uning qiziqishlari, istaklari, kayfiyatini hisobga olishni ham ko'zda tutadi. Bolalar bunday tajribani kooperativ tushdagi faoliyat (birgalikda yasash, chizish, jamoa o'yinlarini o'ynash) natijasida to'playdilar. Tengdoshlari bilan dialog 26 qilishda bola nutqi mazmundorlikka (dialog vaziyatidan qat'i nazar) dalolatdir. Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning dialogik negizida nutqning yangi shakli – monolog tug'iladi va shakllanadi. U bolaning o'z fikrlari, his-tuyg'ulari, atrofmuhit haqidagi bilimlarini o'rtoqlashish istagi oqibatida vujudga keladi.

Maktabgacha davrdagi katta yoshda nutqning grammatik jihatdan to'g'riligini shakllantirish nutqqa nisbatan tanqidiy munosabatning paydo bo'lganligi va rivojlanganligi, aniq va to'g'ri gapirishga intilish bilan bog'liqdir. To'g'rilikka intilish grammatikaning barcha sohalarida, ya'ni – morfologiyada (shaklning aniq shakllanishida, ko'p turdagi shakllarni o'zlashtirishda), so'z yasashda (non uchun – nondon, tuz uchun – tuzdon), sintaksisda (og_zaki nutq tuzilmasini bartaraf etish: «va» bog'lovchisini ko'p marta qo'llash orqali gapni «cho'zish» hamda bir gapda to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita nutqni aralashtirib yuborish) paydo bo'la boshlaydi.

Nutqiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari kirishuvchanlik ko'rinishlarida hamda ayni paytda til va ravon nutqni egallash sur'atida ifodalanadi. Ko'pchilik bolalar

o'z harakatlarini sharhlashni, atrofdagilar e'tiborini o'ziga jalb qilishni xush ko'radilar. . Nutqda eng muhim metod bu dialogik nutq, ya'ni bolalar bilan so'zlashishdir. So'zlashish og'zaki nutqning eng oddiy shakli bo'lib, unda bola o'zini tutishi, ko'z qarashi, xattiharakati, ovozining pastbalandligi, tezligi kabi turli holatlar hisobga olinadi. So'zlashish – dialogik nutq, asosan kattalar yordamida amalga oshiriladi va u ayniqsa, tevarak-atrofnii bilish jarayonida yaxshi natijalar beradi. Jumladan, jamoat joylarida, ko'pchilik o'rtasida nutq madaniyatiga rioya etishga e'tibor qaratiladi. Bunda bir-birining nutqini to'ldirib borish, tuzatishlar kiritish, so'rash, so'rab bilib olish dialogik nutqqa o'rgatishning usullari sanaladi. Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlardan biri suhbat metodi quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi: Tayyorgarlik suhbat (so'zlashish) usullari; Teatrlashtirish usullari (imitatsiya, qayta aytib berish). Suhbatning quyidagi vazifalari mavjud: Bolalarni to'g'ridan to'g'ri suhbatlashishga, ya'ni suhbatdoshi so'zlarini bo'lmasdan tinglash, luqma tashlash uchun qulay paytni kutgani holda o'zini tutib turish, suhbatdoshi uchun tushunarli qilib so'zlash

. Dialogni rivojlantirish nafaqat shunchaki nutqning muayyan kompozitsion shaklini o'zlashtirish, balki bolaning ijtimoiy va shaxs jixatdan shakllanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dialogik dialog nafaqat aloqa (intellektual mazmun) va o'z manfaatlariga yo'nalishni, balki sherikning nuqtai-nazarini, uning qiziqishlari, istaklari, kayfiyatini hisobga olishni ham ko'zda tutadi. Bolalar bunday tajribani kooperativ tusdagi faoliyat (birgalikda yasash, chizish, jamoa o'yinlarini o'ynash) natijasida to'playdilar. Tengdoshlari bilan dialog qilishda bola nutqi mazmundorlikka (dialog vaziyatidan qat'iy nazar) dalolatdir. Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning dialogik negizida nutqning yangi shakli - monolog tug'iladi va shakllanadi. U bolaning o'z fikrlari, his-tuyg'ulari, atrof-muhit haqidagi bilimlarini o'rtoqlashish istagi oqibatida vujudga keladi. Bunda nutq qisqa hikoya shakliga ega bo'ladi. Hikoyada, albatta, bolani lol qoldirgan va uni hayajonga solgan biron-bir qiziq hodisa (tabiat qo'ynidagi qiziqarli uchrashuv, ukasining kulgili harakatlari va h.k.) aks etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tanish ertaklarni, multfil'mlar mazmunini aytib berishni, o'qiganlarini so'zlab berishni xush ko'radilar. Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning eng muhim yutug'i - jaranglayotgan nutqqa qiziqishning shiddat bilan rivojlanishi, til faoliyatini eng oddiy anglashning shakllanishidir. So'zga nisbatan lingvistik munosabat dabdurustdan tovush, qofiya, mazmun bilan o'tkaziladigan o'yinlarda, so'z ahamiyati haqidagi savollarda, ularning jarangdorligi va mazmunida ko'rinadi. Til voqeligini anglash uning barcha tomonlarini - fonetik, leksik, grammatik tomonlarini qamrab oladi. So'zga nisbatan ongli munosabat lug'atni takomillashtirishga (antonimlar, sinonimlar, ko'p ma'noli so'zlarni tushunish), nutqning tovush madaniyatini rivojlantirishga (tovush talaffuzi, tinglash qobiliyati, intonatsiya ifodaviyligi), nutqning grammatik to'griligini shakllantirishga (morfologiya, so'z yasash, sintaksis), ravon nutqni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

Yuqorida bayon qilinganlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, maktabgacha bo'lgan bosqichdagi katta yoshga yetib bola hayotining eng muhim davrlaridan biri - uning birinchi «dorilfununi» nihoyasiga yetadi. Ammo haqiqiy dorilfunun talabasidan farqli ravishda bola birdaniga barcha fakul'tetlarda ta'lim oladi. U jonli va jonsiz tabiat sirlarini o'rganadi (albatta, imkon darajasida), matematikadan dastlabki saboq oladi. Shuningdek, eng oddiy notiqlik kursini ham o'taydi, o'z fikrlarini mantiqan va ifodali bayon qilishni o'rganadi. Filologiya fanlarini o'rganish natijasida nafaqat badiiy adabiyot asarlarini emotsional qabul qilishni, uning qaxramonlariga qayg'urishni, balki badiiy ifodalilikka oid til vositalarining eng oddiy shakllarini his qilish va tushunish ko'nikmalariga ham ega bo'ladi. Bola kichik tilshunosga aylanadi, chunki u nafaqat so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va gap tuzishni, balki so'zlar qaysi tovushdan va gaplar qaysi so'zlardan tashkil topishini anglab olishni o'rganadi. Bularning barchasi maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish, bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish uchun zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.R. Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” T.:”Barkamol avlod” 2018 yil. Darslik
2. Takomillashgan “Ilk qadam” maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. – T.: YUNISEF, 2022.
3. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.
4. Nurmatova M.Sh., Xasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. – T.: “Cho'lpon”, 2010.
5. Nurmatova M.Sh., Xasanova Sh.T., Azimova D. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. – T.: “Musiqqa”, 2010.
6. Baxodirovna, Azizova Ziroat. "INTERNATIONAL TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 458-461.